

TALABALARDA SHAXSIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLAR SHAKLLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Kenjayeva Dilnozaxon Sadirdinovna

Qo‘qon davlat universiteti

Psixologiya kafedrası o‘qituvchisi

Qosimov Humoyunmirzo Miraakbar o‘g‘li

Qo‘qon davlat universiteti 02/24-AP guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20794601>

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalik davri nafaqat kasbiy tayyorgarlik bosqichi, balki shaxsning psixologik jihatdan yetilishi, mustaqil qaror qabul qilishi, o‘zining ichki “Men”ni anglash jarayonida muhim davr sifatida qaraladi. Aynan shu davrda shaxsiy hayot, shaxsiy chegaralar, intim makon, kommunikativ mustaqillik kabi tushunchalarga oid tasavvurlar shakllanishi va ularga qaysi psixologik omillar ta’sir qilayotgani va bu jarayonning psixologik mexanizmlarini o‘rganish ijtimoiy-psixologik ahamiyatini yoritishga qaratilgan.

Kalit so‘zla: talabalik davri, “Men” ni anglash, qaror qabul qilish, Shaxsiy chegara, intim makon, oila, ijtimoiy muhit, ta’lim.

Kirish: Oliy o‘quv yurtidagi ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari talabalarning barcha ijtimoiy guruhlar bilan (ular xoh rasmiy, xoh norasmiy bo‘lishidan qat’i nazar) muloqotga kirishish uchun muhim imkoniyat yaratadi. Talabalik davrining asosiy xususiyatlaridan biri ijtimoiy etuklikning jadal sur‘at bilan ro‘yobga chiqishidir. Ma’lumki, ijtimoiy etuklik (kamolot) shaxsdan zarur aqliy qobiliyatni hamda ijtimoiy turmushda bajariladigan turli rollarni egallashga (oila qurishga), farzandlarni tarbiyalashga, foydali mehnatda qatnashishga (mas’ul vazifada ishlashga) tayyorlanishni talab qiladi.

Talabalik davri — o‘spirinlikning ikkinchi bosqichidan iborat bo‘lib, 17–22 (25) yoshni o‘z ichiga oladi va uning qator betakror xususiyatlari va qarama-qarshiliklari bilan xarakterlanadi. Shu boisdan o‘spirinlik davri shaxsning ijtimoiy hamda kasbiy mavqeini anglashidan boshlanadi. Mazkur pallada o‘spirin o‘ziga xos ruhiy inqiroz yoki tanglikning boshidan kechiradi, jumladan, kattalarning turli ko‘rinishdagi (unga yaqinlashishi yoki e’tibor bermasligidan qat’i nazar) rollarini taqlid qilishga, sinab ko‘rishga intiladi, turmush tarzining yangi talablariga ko‘nika boshlaydi.

Talabalarning shaxsiy hayot haqidagi musbat va aniq tasavvurlari yuqori ijtimoiy-emotsional moslashuv va o‘zini boshqarish ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Oila muhitining qo‘llab-quvvatlashi va oilaviy kommunikatsiya sifatining balandligi talabalarning shaxsiy hayot haqidagi tasavvurlarida mustaqillik va shaxsiy chegaralarni aniqlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Jinsiy farqlar (erkak va ayol talabalar) shaxsiy hayot haqida tasavvurlarning mazmuniy tarkibida sezilarli farqlarni ko‘rsatadi (masalan, intim chegaralar, shaxsiy erkinlik tushunchalari). Ta’lim yo‘nalishi va kurs yoshi (1–kursdan 4–kursgacha) shaxsiy hayot haqidagi tasavvurlar rivojlanishida o‘ziga xos dinamikani ko‘rsatadi: yuqori kurslarda mustaqillik va o‘zini anglash elementlari kuchayadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalarning shaxsiy hayot haqidagi tasavvurlari strukturaviy elementlarga ega ekanligi (masalan, shaxsiy chegaralar, intim va ijtimoiy komponentlar), bu tasavvurlar oilaviy va ta’lim muhitining ta’siri ostida shakllanadi va ijtimoiy media qatnashuvining ham mustaqil ta’siri bor.

Xulosa va takliflar: Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, talabalik davri inson hayotida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda inson o‘z oldiga maqsad qo‘yishni o‘rganadi va kelajakdagi hayot yo‘lini belgilab oladi. Kuzatishlardan ko‘rinadiki,

talabalarda hayotiy maqsadlarning shakllanishi ularning ichki motivatsiyasi, o'ziga bo'lgan ishonchi va atrof-muhit ta'siriga bog'liq bo'ladi. Masalan, ba'zi talabalar aniq maqsad bilan harakat qilsa, boshqalarda bu hali to'liq shakllanmagan bo'ladi. Psixolog olimlar fikriga qaraganda ham, aynan shu davrda insonning fikrlashi, o'zini anglash darajasi va qaror qabul qilish qobiliyati kuchayadi. Shu sababli, bu davrda to'g'ri yo'naltirilgan talaba kelajakda o'z o'rnini topa oladi. Shuningdek, shuni ham aytish mumkinki, hayotiy maqsadlar birdaniga paydo bo'lib qolmaydi, balki asta-sekin shakllanadi. Bunda insonning o'z ustida ishlashi, qiziqishlari va uni qo'llab-quvvatlaydigan muhit muhim rol o'ynaydi. Talabalarga maqsad qo'yishni o'rgatish uchun dars jarayonida ko'proq amaliy mashg'ulotlar o'tkazish kerak. Oliy ta'lim muassasalarida psixologik treninglar va motivatsion uchrashuvlarni ko'paytirish foydali bo'ladi. Har bir talabaga individual yondashish, uning qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish muhim. Talabalarga vaqtni to'g'ri taqsimlash va o'z ustida ishlash ko'nikmalarini o'rgatish zarur. Yana shuni aytish mumkinki, agar talaba o'z oldiga aniq maqsad qo'ya olsa va unga erishish uchun harakat qilsa, u albatta yaxshi natijalarga erishadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. P.I.Ivanov, M.E.Zufarova – umumiy psixologiya. Toshkent, 2008
2. Pavlov I.P. Oliy nerv faoliyati haqida ta'limot. – Moskva, 1951.
3. F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya. Toshkent-2010.
4. Eksperimental psixologiya asoslari. – Toshkent: Universitet, 2017.
5. Sadirdinova K. D. O'QITUVCHI OBRAZINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI //Advances in Science and Humanities. – 2025. – T. 1. – №. 04. – C. 6-9.
6. Sadirdinova K. D. TALABALIK DAVRIDA HAYOTIY MAQSADLARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK HUSUSIYATLARI //Advances in Science and Education. – 2025. – T. 1. – №. 11. – C. 146-148.
7. Maulana M. I. et al. Ergonomic evaluation of bagging workers using nordic body map and QEC //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2026. – T. 3337. – №. 1. – C. 040027.